

Buxoro viloyatida mehnat bozori dinamikasi tahlili

Shuhrat Ahatovich Rahmatov
Xolida Xoliqovna Hasanova
BDTU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyati mehnat bozorining 2021-2024-yillar oralig'idagi dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida iqtisodiy nafaol aholining o'sish sabablari, bandlikning tarmoqlararo taqsimlanishi va mulkchilik shakllarining o'zgarish tendensiyalari ochib berilgan. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotining servis va xizmat ko'rsatish yo'nalishiga transformatsiyalashuvi hamda uning aholi bandligidagi roli baholangan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, bandlik, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi, tarkibiy o'zgarishlar, mulkchilik shakllari

Analysis of labor market dynamics in Bukhara region

Shuhrat Ahatovich Rahmatov
Xolida Kholikovna Hasanova
BSTU

Abstract: This article analyzes the dynamics and structural changes of the labor market in the Bukhara region between 2021 and 2024 based on statistical data. The research identifies the reasons for the growth of the economically inactive population, the intersectoral distribution of employment, and trends in changing forms of ownership. Furthermore, it evaluates the transformation of the regional economy towards service and tourism and its impact on population employment.

Keywords: labor market, employment, economically active population, economically inactive population, structural changes, forms of ownership

Zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash bevosita mehnat bozoridagi samaradorlik sifatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy davlat" tamoyili asosidagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish hamda aholining bandlik darajasini oshirish ustuvor vazifa qilib

belgilangan¹. Bu borada, ayniqsa, Buxoro viloyati o'zining demografik o'sishi va iqtisodiy diversifikatsiyalashuv darajasi bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Buxoro viloyati mehnat bozori bugungi kunda tarkibiy o'zgarishlar bosqichini boshidan kechirmoqda. Mehnat bozori dinamikasini chuqurroq anglash uchun mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol qatlamlarga bo'linish tendensiyasini tahlil qilish lozim. Mehnat bozori dinamikasini chuqurroq anglash uchun avvalo mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi tushunchalariga ta'rif berishni lozim deb topdik:

Mehnat resurslari bu mamlakatning mehnat qilish uchun jismoniy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan barcha aholisini o'z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Mehnat yoshidagi aholi: O'zbekistonda bu erkaklar uchun 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar uchun esa 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan davrdir.

- Mehnat yoshidan kichik yoki katta bo'lsa-da, ishlayotganlar: Masalan, ishlovchi pensionerlar yoki 16 yoshga to'lmagan ishlovchi o'smirlar.

Muhim jihat: Mehnat yoshidagi barcha insonlar ham mehnat resursi hisoblanmaydi. Masalan, I va II guruh nogironlari (mehnat qobiliyatini yo'qotganlar) bu guruhga kirmaydi.

Iqtisodiy faol aholi bu mehnat bozorida tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun o'z mehnatini taklif qilayotgan qismidir. Ular ikki toifaga bo'linadi:

1. Bandlar: Rasmiy yoki norasmiy sektorda daromad keltiradigan ish bilan band bo'lganlar.

2. Ishsizlar: Ishi yo'q, lekin faol ravishda ish qidirayotgan va ish taklif qilinsa darhol ishlashga tayyor bo'lgan shaxslar.

Iqtisodiy nafaol aholi bu mehnat yoshida bo'lsa-da, ma'lum sabablarga ko'ra ishlamayotgan va ish qidirish bilan band bo'lmagan shaxslardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- Kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar.
- Uy bekalari (faqat uy ishlari va bola tarbiyasi bilan band bo'lganlar).
- Daromad olish maqsadida ish qidirishni to'xtatgan shaxslar.
- Ixtiyoriy ravishda ishlamayotganlar (masalan, ijara yoki dividend hisobiga yashovchilar).²

Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqsimlanishi
(ming kishi)³

	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarish (+/-)
Jami mehnat resurslari	1072,3	1073,4	1089.2	1092.0	+19.7

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida <http://lex.uz//ru/docs/-6600413>

² Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent: Fan, 2019.

³ buxstat.uz ma'lumotlari asosida

Iqtisodiy faol aholi	862.2	860.6	858.8	853.5	-8.7
Iqtisodiy nafaol aholi	210.1	212.8	230.4	238.5	+28.4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi to'rt yil ichida Buxoro viloyatida ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida o'ziga xos disproporsiya shakllanayotgani kuzatilmoqda. Mehnat resurslarining umumiy o'sishi 2021-yildagi 1072,3 ming kishidan 2024-yilga kelib 1092,0 ming kishiga yetgan. Bu viloyatda mehnat taklifining muntazam ravishda ortib borayotganini ko'rsatadi. E'tiborli jihati shundaki, umumiy resurslar ko'paysa-da, iqtisodiy faol aholi soni 862,2 mingdan (2021-y.) 853,5 ming kishiga (2024-y. dastlabki ma'lumot) tushgan. Bu holat ishchi kuchining bir qismi norasmiy sektorga o'tishi yoki ta'lim va boshqa ijtimoiy sabablarga ko'ra faolligini vaqtincha yo'qotishi bilan izohlanishi mumkin. ahlil qilinayotgan davrda iqtisodiy nafaol aholi soni sezilarli darajada - 210,1 mingdan 238,5 ming kishiga ko'paygan (o'sish sur'ati qariyb 13,5%).

Buxoro viloyatida mehnat bozori va bandlik sohasidagi joriy holatni baholash uchun 2021-2024-yillar oralig'idagi mehnat bozori dinamikasini tarmoqlar bo'yicha tahlil qilish tizimli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Mehnat bozori⁴

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Ish bilan band aholi (bir davrda o'rtacha; ming kishi)				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	231.5	227.5	228.8	224.8
Sanoat	99.7	92.3	95.9	91.3
Qurilish	102.7	99.4	110.1	103.9
Savdo	73.0	70.4	73.5	72.2
Tashish va saqlash	42.3	40.5	40.4	39.0
Ta'lim	71.7	72.6	75.9	77.5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	40.5	39.9	40.2	43.2
Boshqa turlari	115.9	141.9	138.4	155.9
Ish bilan band aholini mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlash				
Davlat sektori	382.4	472.2	436.0	451.6
Nodavlat sektori	394.9	357.3	367.2	356.2

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari 2021-2024-yillar oralig'ida Buxoro viloyati mehnat bozorida jiddiy sifat o'zgarishlari yuz berganligini ko'rsatadi. Ushbu davrda bandlikning tarmoqlararo taqsimlanishi va mulkchilik shakllarining dinamikasi quyidagi qonuniyatlarni ochib beradi:

Birinchidan, agrar sektordan xizmat ko'rsatish sohasiga siljish tendensiyasi. Viloyatda qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni 2021-yildagi 231,5 ming kishidan 2024-yilga kelib 224,8 ming kishigacha (kamayish 2,9%) qisqarganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat qishloq xo'jaligida klaster tizimining joriy etilishi va mehnat unumdorligining ortishi hisobiga "ortiqcha" ishchi kuchining ozod bo'layotganidan dalolat beradi. Aksincha, "Boshqa turlar" (servis va xizmat ko'rsatish) yo'nalishida bandlik 115,9 mingdan 155,9 ming kishiga (o'sish 34,5%) keskin oshgan. Bu Buxoro

⁴ buxstat.uz ma'lumotlari asosida

viloyatining turistik va xizmat ko'rsatish salohiyati mehnat bozorining asosiy drayveriga aylanganini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy sohalarining barqaror o'sishi. Ta'lim sohasida bandlikning 71,7 mingdan 77,5 mingga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida esa 40,5 mingdan 43,2 mingga ko'payishi kuzatilgan. Ushbu tendensiya davlatning inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalari va yangi ijtimoiy muassasalarning ishga tushirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Uchinchidan, mulkchilik shakllari bo'yicha bandlikning o'zgarishi. Jadvalda davlat sektorida bandlar sonining 382,4 mingdan 451,6 ming kishigacha ortishi va nodavlat sektorda bandlikning 394,9 mingdan 356,2 ming kishiga pasayishi aks etgan. Ushbu transformatsiya viloyatda ijtimoiy himoya va davlat xizmatlari ko'lamining kengayishi, shuningdek, ayrim xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tizimlashishi natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida mehnat resurslari soni ortib borayotgan (1072,3 mingdan 1092,0 ming kishiga) bir paytda, iqtisodiy faol aholi ulushi kamayib (862,2 mingdan 853,5 mingga), nafaol qatlam 13,5% ga o'sgan. Bu holat mehnat bozorida norasmiy bandlikning saqlanib qolayotganligi yoki mehnat resurslarining malaka darajasi bozor talabiga mos kelmayotganidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning tarmoqlar kesimidagi tahlili viloyatda xizmat ko'rsatish sohasining (o'sish 34,5%) va davlat sektori bandligining (382,4 mingdan 451,6 mingga) ustuvorlik kasb etayotganini ko'rsatdi. Statistik tahlil natijalaridan kelib hiqqan holda quyidagi takliflarni berishni lozim deb topdim:

1. *Iqtisodiy nafaol aholini faollashtirish*: Nafaol qatlam soni 238,5 ming kishiga yetganini hisobga olib, ularni "mahallabay" ishlash tizimi orqali tadbirkorlikka va o'zini-o'zi band qilishga yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish.

2. *Malaka transformatsiyasi*: Qishloq xo'jaligida bandlik qisqarayotgani (2,9% kamayish) sababli ozod bo'layotgan ishchi kuchini jadal o'sayotgan xizmat ko'rsatish va servis sohalariga (turizm, AKT, logistika, yashil iqtisodiyot) qayta o'qitish dasturlarini joriy etish.

3. *Mulkchilik shakllari mutanosibligi*: Nodavlat sektorda bandlikning kamayish tendensiyasini (394,9 mingdan 356,2 mingga) tahlil qilgan holda, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va "yashirin iqtisodiyot"dagi bandlikni legallashtirish choralarini ko'rish.

4. *Ijtimoiy yordamning manzilliligi*: "Ijtimoiy davlat" tamoyili asosida, ijtimoiy yordam oluvchi oilalarning mehnatga layoqatli a'zolari uchun bandlikni ijtimoiy nafaqa bilan bog'lovchi "ijtimoiy kontrakt" tizimini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. "O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risida <http://lex.uz//ru/docs/-6600413>
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. - Toshkent: Fan, 2019.
3. buxstat.uz Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi (2021-2024 yy.).
4. buxstat.uz Buxoro viloyati statistika boshqarmasi hisoboti. Mehnat bozori: Ish bilan band aholini iqtisodiy faoliyat turlari va mulkchilik shakllari bo‘yicha taqsimlanishi (2021-2024 yy.).